

## ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Abdiyeva Dilafruz Shuhrat qizi.*

*Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani*

*1-son kasb- hunar maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali siz ona tili darslariga doir qiziqarli metod va o'yinlar bilan tanishasiz: Xato top, Almashinish metodi, Kungoboqar metodi, Baliq ovi, taqdimot-tadqiqot va boshqa qiziqarli metodlar.

**Abstract :** Through this article, you will get acquainted with interesting methods and games related to mother tongue lessons: Find the error, Substitution method, Sunflower method, Fishing, presentation-research and other interesting methods.

**Аннотация:** Благодаря этой статье вы познакомитесь с интересными методами и играми, связанными с уроками родного языка: «Найди ошибку», «Метод замены», «Метод подсолнуха», «Ловля рыбы», «Презентация-исследование» и другими интересными методами.

**Kirish so'zlar:** "Kungoboqar" metodi, "Almashinish", "Baliq ovi", bog'lanishli matn, musobaqa usul, hamjihatlik sifati

**Key words:** "Sunflower" method, "Exchange", "Fishing", connected text, competition method, quality of cooperation

**Ключевые слова:** метод «Подсолнух», «Обмен», «Рыбалка», связный текст, метод соревнования, качество сотрудничества.

Millat ruhi, sha'ni, g'ururi bo'lgan ona tilimiz shoni, shavkati uchun kurashish har birimizning farzandlik burchimizdir. Avvalo, ona tilimizga bo'lgan e'tibor oiladan boshlanadi va nutqning go'zalligi, nafosati, ta'sirchanligi maktab saboqlari orqali oshadi. Bunda, albatta, pedagoglarimizning pedagogik mahoratlarning xizmati katta.

Ona tili darslari grammatika, to'g'ri talaffuz va nutqqa asoslangani uchun o'quvchilar uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Ammo, uni turli xil interfaol metodlar bilan yoritsak, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada orttiramiz. Metod shunday

tanlanishi kerakki unda o'quvchi o'zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon aytishi, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirilishi lozimligi muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – «Klaster», «Aqliy hujum», «Davom ettir», «Taqqimot», «Blits-so'rov», «Muammoli vaziyat» kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida «Sinkveyn», «Teskari test», «Aql charxi» metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida «Insert», «Pinbord», «Zinama-zina», «Bumerang» texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida «Venn diagrammasi», «Baliq skeleti», «Nima uchun?», «Qanday?», «Konseptual jadval», «Nilufar guli» kabi grafik tashkil etuvchilar hamda «Tushunchalar tahlili», «T-jadval», «Rezyume», «Kungaboqar», «Charxpalak» metodlarini, uyga vazifa berishda «FSMU», «Klaster», «Bo'g'inlar zanjiri», «BBB» metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari «Ha... yo'q», «Ta'rif egasini top», «Men kimman?», «Domino», «Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi ...) ortiqcha», «Sirli sandiqcha metodi», «Harfni his qilish» metodlari kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin.[1,309] «Xato top» o'yini. Bunda o'quvchilar guruh bo'lib ishlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir guruhga xato yozilgan so'zlar berilgan matnlar tarqatildi. Matn tanlashda o'tilgan mavzuni inobatga olish kerak. Masalan : «Uyushiq bo'laklari», «Undalmalar» yoki «Unli tovushlar» mavzulari asosida matnlar tayyorlash mumkin. Guruhlar xato yozilgan so'zlarni yoki tinish belgilarini aniqlaydilar. Belgilangan vaqtdan so'ng marnlar o'zaro almashinib, guruhlar o'zaro xatolarini ko'rib chiqadilar. Qaysi guruh qanday natijaga erishganini ekranda berilgan to'g'ri matn orqali bilib oladilar. Bu usul o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yordam beradi. Darslarni musobaqa tarzida tashkil etilganda bu o'yinda foydalanish mumkin. «Izoh ber» o'yini. Bu o'yinda «Dam olish daqiqasi»da foydalanish mumkin. Oq qog'ozda boshqa tillardan o'zlashtirilgan yoki ma'nosi qiyin so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar yozib qo'yilib, sinf taxtasiga ilinadi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, so'zlarning izohini yozadilar. Bu usul o'quvchilarni hamjihatlikka tarbiyalaydi. Bog'lanishli matn yaratish

malakasini rivojlantiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi. Darsning aralash turlarida, takrorlash darslarida bu ta'limiy o'yindan umumli foydalanish mumkin. Musobaqa usulda tashkil qilish yaxshi samara beradi. [2-34] Almashinish metodi. Kichik guruhlarning barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 daqiqa davomida o'z fikrlarini yozadi va javob varaqalarini ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruh javoblarini baholaydi, agar javob to'liq bo'lmasa, o'z variantini taklif qiladi. Bu esa o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. [3,182] Yana bir samarali metodni ko'rib chiqamiz: Kungoboqar metodi - kungoboqar rasmi o'rtasida unli harflar, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unli harflarni almashtirish ham mumkin. Bu jarayonda hamma o'quvchilar baravar ishtirok etadilar. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faolqatnashganlarni rag'batlantirib, baholab boradi. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga xizmat qiladi. [4,657] «Baliq ovi» o'yini. Doskaning bir tomoniga dengiz rasimi, ikkinchi tomoniga akvarium rasimi tushiriladi. Dengizda baliqlar bo'ladi. O'quvchi dengizdagi baliqlardan birini tutib uni orqa qismidagi savollarga javob beradi. Javob to'g'ri bo'lsa baliqni akvariumga, noto'g'rib bo'lsa dengizga qo'yib yuboradi. Bu esa o'quvchilarda tezkorlik, topqirlik sifatlarini shakllantiradi, jamoaviylik ruhini oshiradi. «Taqdimot-tadqiqot» usuli. Bu bosqichda har bir guruhdan bir nafar o'quvchi yangi mavzu va yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lash maqsadida doskada taqdimot qilishadi. O'qituvchi tomonidan yangi mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar berib o'tiladi. Bu metod orqali o'quvchilarning nutq madaniyati oshadi, o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi. [5,311-312] Xulosa qilib aytadiga, interfaol metodlar bu darsning qiziqarliligini oshiradi, ta'lim sifatini yaxshilaydi, o'qituvchilar va o'quvchilar munosabatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences  
(E)ISSN:2181-1784, Turdiyeva Gulbahor Toxirovna, ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH, 309-b
2. “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027\_SJIF: 4.995, Bekbaltayeva Mavluda Nietullayevna, ONA TILI FANINI O'QITISHDA YANGICHA METODLAR, 34-b
3. “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027\_SJIF: 4.995, Dadajonova Nargiza Abduaziz qizi, ONA TILI FANINI O'QITISHDA YANGICHA METODLAR, 182-b
4. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNAL 8-son, Yaxshiboyeva Dilorom Yuldashevna, ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLAR VA DARSLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI, 657-b
5. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences  
(E)ISSN:2181-1784, Turdiyeva Gulbahor Toxirovna, ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH, 311-312-b